

## ISHSIZLIK

Satimboyeva Sohiba

*Xususiy huquq talabasi TDYU talabasi*

Ishsizlik – bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishidir. O'zbekistonda ishsizlik tushunchasi rasman 1992 – yil “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risi”gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining psayishini, shaxsiy hayotini g notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez osgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik turli omillar ta'sirida yuzaga keladi, masalan; texnologik o'zgarishlar, ishchi kuchining qisqarishi va geografik harakatsizlik. Ishsizlik oqibatlarida orasida ishchi kuchi tarkibining o'zgarishi, xodimning shaxsiy stressi va mamlakatdagi umumiy xarajatlarning kamayishi kiradi. Ishsizlik sababi har xil bo'lganidek uning shakillari ham turlicha. Ishsizlikning asosiy shakillari: friksion ishsizlik – turli sabablarga ko'ra (yangi yashash joyiga o'tish, kasbni o'zgartirish, bola boqish, yangi ish tanlash) vaqti vaqti bilan ishsiz qolish. Bu ixtiyoriy ishsizlik qolish hisoblanadi. Tarkibiy ishsizlik - ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgartirilgan sharoitda eski tarmoqlarda kerak kasbni hali o'zlashtirmagan kezlarda yuz beradi. Siklli ishsizlik – iqtisodiy tangliklar bilan bogliq, ishlab chiqarishning pasayib ketishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik bu majburan ishsiz qolishdir. Mavsumiy ishsizlik – mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach, ishsiz qolishi. Yashirin ishsizlik – rasman ish bilan band bo'lganlarning faqat qisman ishlashi. Unga qisqartirilgan ish kuni kuni yoki ish haftasiga o'tganlar, ish yo'qligidan haq berilmaydigan ta'tilga chiqqanlar kiradi. Ishsizlar ishlayotganlar bilan bir qator mamlakat ish kuchini tashkil qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat korxonalarini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotchilar doimiy ishsiz ishtirokchilar ish bilan band bo'lganlarga qaraganda o'z hayotlaridan ko'proq norozi ekanligini aniqladilar. Tadqiqot shuningdek, ishsizlikni o'lim xavfi va ruhiy salomatlik muammolari bilan bog'lanadi. Ishsizlar safiga, odatda, nafaqat turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shatilgan, balki o'z ixtiyoriga ko'ra ishdan ketganlar va yangi ish topishga harakat qilayotgan shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Ishsizlik tarkibi uning sabalariga ko'ra ish kuchining 4 asosiy toifasini o'z ichiga oladi : ishdan bo'shatilishi natijasida ish joyini yo'qotganlar ; ishdan ixtiyoriy ravishda bo'shaganlar ; tanaffusdan so'ng ish qidirayotganlar ; birinchi bora ish qidirayotganlar . Bu toifalarning o'zaro nisbatlari iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga bog'liq .

Mamlakat miqyosida 3-5% darajasidagi ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holat ( ishsizlikning tabiiy chegarasi ) hisoblanadi . Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun aholi bandligini ta'minlash davlat dasturlari ishlab chiqiladi , korxonalar qurilib , yangi ish o'rinlari tashkil etiladi , xodimlarni yangi kasblarga o'qitish , qayta tayyorlash ishlari amalga oshiriladi , bandlikka yordam jamg'armasi tashkil qilindi .

Qashoqlik va ishsizlik muammolarini qanday hal qilish kerak.

1. Hamma uchun ta'limni targ'ib qilish kerak
2. Mehnat ta'limini yanada qulayroq qilish kerak .
3. Mikromoliyaviy dasturlarni yaratish kerak .
4. Mehnatni ko'p talab qiladigan tarmoqlarda ish o'rinlarini ko'paytirish .
5. Infratuzilmalarga sarmoya kiritish kerak .
6. Ishsizlik sug'urtasidagi to'siqlarni kamaytirish kerak.
7. Arzon uy – joy yaratish kerak .

Mehnat qonunlariga ko'ra , ishsizlarga mehnat birjalari orqali ishsizlik nafaqasi to'lanadi .

Ishsizlik nafaqasi – O'zbekiston Respublikasida ishsidan , ishidagi daromadidan mahrum bo'lib qolgan fuqoralarga qonunda ko'zda tutilgan tartibda va miqdorda , davriy ravishda beriladigan pullik yordam. Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxsga u ish qidirayotgan shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatdan o'tkan kundan e'tiboran tayinlanadi . Qaromog'ida 3 nafargacha kishi bo'lgan , 35 yoshga to'lmagan ishsiz erkaklarga haq to'lanadigan jamoat ishlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda ishtirok etkan taqdirda tayinlanadi . Ishsiz shaxsning ishsizlik nafaqasi olish huquqi u ish qidirayotkan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkan paytdan boshlab kechi bilan bir kundan e'tiboran kuchga kiradi . Ishsizlik nafaqasiga oid amaldagi qonun –qoidalar , O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 60 - 66 moddalarida belgilab qo'yilgan .